

**ZARAFSHON VOHASIDAGI TABIIY
IMKONIYATLARNING TASHQI ALOQALARGA
YO'L OCHISHI**

*Tuyev Fazliddin Erkinovich, Buxoro davlat pedagogika instituti
dotsenti, mustaqil izlanuvchi*

**ОТКРЫТИЕ ПРИРОДНЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ В
ЗАРАФШАНСКОМ ОАЗИСЕ ДЛЯ ВНЕШНИХ
СВЯЗЕЙ**

*Туев Фазлиддин Эркинович, доцент Бухарского
государственного педагогического института, независимый
исследователь*

**THE OPENING OF NATURAL OPPORTUNITIES IN
THE ZARAFSHAN OASIS TO EXTERNAL
RELATIONS**

*Tuyev Fazliddin Erkinovich, Associate Professor of Bukhara State
Pedagogical Institute, independent researcher*

Annotatsiya: Zarafshon vohasi deganda, bag'rida behisob tabiiy boyliklari, oltin va kumush, marmar va fosforit, kvars, feruza va ohaktosh, muxtasar aytganda, o'zida butun Mendeleev jadvalini mujassam etgan saxovatli zaminni tasavvur qilamiz. Albatta, bunday imkoniyatlari mavjud bo'lgan bu zaminga xorijiy davlatlar vakillari qiziqishlari tabiiy holdir. Bu imkoniyatlaridan foydalanib mintaqaning uzoq va yaqin xorijiy davlatlar bilan tashqi aloqalarga kirishish imkoniyatlari mavjud.

Kalit so'zlar: Buxoro, Navoiy, Samarkand, AQSh, Fransiya, Germaniya, Chexiya, Turkiya, Yaponiya, Xitoy, Malayziya, Singapur, Hindiston, sanoat korxonalari, neft, energetika, kompaniyalar.

Abstract: By the oasis of Zarafshan, we imagine a generous land in its bosom, which embodies the entire Mendeleev schedule, in short, whether you say its innumerable natural resources, gold and silver, marble and phosphorite, and quartz, Feruza and limestone. Of course, it is natural that representatives of foreign countries are interested in this land, which has such opportunities. Take advantage of these opportunities to have access to foreign relations with foreign countries far and near the region.

Keywords: Bukhara, Navoi, Samarkand, USA, France Germany, Czech Republic, Turkey, Japan, China, Malaysia, Singapore, India, industrial enterprises, oil, energy, mining.

Аннотация: Называя оазис Зарафшан, мы представляем себе щедрую землю в его недрах, которая воплощает в себе всю систему Менделеева, ее бесчисленные природные ресурсы: золото и серебро, мрамор и фосфориты, кварц, ферузу и известняк. Конечно, естественно, что представители зарубежных стран проявляют интерес к этой земле, которая обладает такими возможностями. Воспользовавшись этими возможностями, чтобы иметь доступ к международным связям с зарубежными странами, расположенным далеко и рядом с регионом.



[https://orcid.org/0009-
0008-9582-2598](https://orcid.org/0009-0008-9582-2598)

e-mail:

fazli1820bek@gmail.com

Ключевые слова: Бухара, Навои, Самарканд, США, Франция, Германия, Чехия, Турция, Япония, Китай, Малайзия, Сингапур, Индия, промышленные предприятия, нефть, энергетика, добыча полезных ископаемых.

KIRISH. O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki yillardan to bugungi kunga qadar sanoatning barcha tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Uzoq va yaqin xorijiy davlatlar bilan o‘zaro hamkorlik va investitsion loyihaviy shartnomalar asosida qo‘shma korxonalar tashkil qilinmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarda Zarafshon vohasining o‘rnini alohida qayd qilish lozim.

MUAMMONING O‘RGANILGANLIK DARAJASI VA METODOLOGIYA. O‘zbekistonning xalqaro aloqalari tarixiga bag‘ishlab yozilgan ishlarga A.Alimov, A.Kasmov, I.Vaskin, N.To‘xliyev, A.Toqsanov, A.Rasulov va boshqalarning kitoblarini kiritish mumkin. Milliy va mahalliy davlat arxivlari, davriy matbuot hamda ilmiy-ommabop nashrlardan foydalangan holda, tanlangan muammo mohiyatini oolib beradi. Zarafshon vohasidagi tabiiy imkoniyatlarning tashqi aloqalarga kiritilishini o‘rganish jarayonida iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiyalash, induksiya, deduksiya, dinamikada o‘rganish, qiyosiy tahlil va boshqa usullardan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA. Bugun, Zarafshon vohasi deganda, bag‘rida behisob tabiiy boyliklari, oltin va kumush, marmar va fosforit deysizmi, kvars, feruza va ohaktosh deysizmi, muxtasar aytganda, o‘zida butun Mendeleyev jadvalini mujassam etgan saxovatli zaminni tasavvur qilamiz. Albatta, bunday boylik har kimga ham berilmaydi. Navoiy haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, viloyatni O‘zbekistonning oltin sandig‘i, deb baralla aytish mumkin. Qolaversa, navqiron Buxoro va Samarqand esa yirik sanoat markazlaridandir. Samarqandda avtobus va yuk tashuvchi mashinalar, muzlatkichlar, liftsozlik, mineral o‘g‘itlar, chinni buyumlar, shoyi gazlamalar, qishloq xo‘jalik texnikalari ehtiyyot qismlari, oziq-ovqat sanoati, Buxoroda milliy zardo‘zlik, tabiiy neft va gaz konlari, to‘qimachilik, ipakchilik, qorako‘l teri va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Shu boisdan

ham respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalari, qo‘shma korxonalar ko‘payishi natijasida ishsiz aholining band qilinishi bilan aholining ijtimoiy ahvolini ijobiy tomonga yaxshilashda respublika tashqi aloqalariga o‘z hissalarini qo‘sghanligi uchun vohaning xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalariga alohida e’tiborimizni qaratdik[1].

Mustaqillikning dastlabki yillarda (1991-1995-yillarda) O‘zbekiston Respublikasiga zarur neftning 80 foizini chetdan tashib keltirishga majbur bo‘lingan[2]. Bundan tashqari, benzin va boshqa neft mahsulotlari ham respublikaning tashqarisidan sotib olinardi. Ularning narxlari muttasil oshib borishi respublika iqtisodiyotiga og‘ir yuk bo‘lib tushgan. Ayni paytda esa respublika o‘zini neft va boshqa energetika resurslari bilan ta’minalash imkoniyatiga ega bo‘lganligi sababli Buxoro viloyatining Qorovulbozor shahrida 1993-yildan (Hukumatning 1993-yil 3-avgustdagagi 389-sonli qarori) neftni qayta ishslash zavodi qurilishi boshlanib, zavod 1997-yil 22-avgustda ishga tushirilgan[3].

Zavod qurilishida 500 mln AQSH dollari korxona qurilishini moliyaviy jihatdan ta’minalash uchun sarflanib va qurilish jarayonida xorijiy zavodni qurishda mamlakatlarning banklari, kompaniyalari va firmalari ishtirok etgan. Amerikaning “Cheyz Monxetten”, Fransiyaning “Kredi kommersial de Frans”, “Pariba”, Yaponiya va AQShning eksport-import banklari moliyaviy ko‘magidan foydalaniildi. Loyihaning texnologik qismini amalga oshirish uchun Fransiyaning “TEKNEP” firmasi, Yaponianing “Marubeni” va “Je Gi Si” kompaniyalari ishtirok etdilar. Turkiyaning “Gama” kompaniyasi va O‘zbekistonlik quruvchilar hamkorligida qurilish-montaj ishlarini birgalikda bajardilar[4].

Respublika yoqilg‘i sanoati yer qa’rida topilgan va qazib olinayotgan ko‘mir, neft, gaz konlari negizida shakllangan va rivojlanib bormoqda. Respublikada 160ga yaqin neft va gaz konlari ochilgan, ularning 115tasi Buxoro va Xiva geologik provinsiyasida, 27tasi Farg‘ona vodisida,

10tasi Surxondaryoda, 7tasi Ustyurtda joylashgan. Hozir 71ta neft, gaz va gaz kondensat, 2ta ko‘mir konidan foydalanilmoqda. 50dan ortiq neft, gaz va gaz kondensat koni esa kelajakda ishga tushirish uchun tayyorlab qo‘yilgan. Yoqilg‘i sanoati Respublika yoqilg‘i-energetika majmuasining asosiy tarmog‘ini tashkil etadi va barcha turdag'i yoqilg‘ini qazib olish, tabiiy gazni tozalash va yetkazib berish, neft mahsulotlarini qayta ishlash korxonalaridan iborat. Ular xalq xo‘jaligining barcha bo‘g‘inlarida xizmat ko‘rsatadi. Yoqilg‘i sanoatining yirik korxonalari Toshkent, Farg‘ona, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida joylashgan. Neft sanoati yoqilg‘i sanoatining eng muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi va neftni qayta ishlash korxonalaridan tashkil topadi. Hozirgi davrda sanoatning bu tarmog‘i Buxoro viloyat xalq xo‘jaligi va aholining neft mahsulotlariga bo‘lgan talabini to‘la qondirish imkoniyatlariga ega bo‘ldi. Shu sababdan ham bu tarmoqning ahamiyati beqiyos. Neftni qayta ishlash sanoati sohasida Oltiariq, Farg‘ona, Buxoro neftni qayta ishlash zavodlari ishlab turibdi. Buxoro neftni qayta ishlash zavodida yuqori sifatli benzin, dizel yoqilg‘isi, koks, parafin, motor moylariga qo‘shilmalar, yengil mashinalar uchun motor va surkov moylari (kompressor, turbina, urchuk moylari), kerosin, bitum, suyultirilgan neft gazlari (butan, texnik propan va shunga o‘xshagan), mazut kabi 50dan ortiq turdag'i neft mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda[5].

2000-yildan qo‘shma sanoat korxonalari ishlab chiqarayotgan mahsulotlarni ichki bozorga yo‘naltirish hamda chetga eksport qilishni davlat nazorat qila boshladi. Zarafshon vohasida ishlab chiqarishi pasaygan sanoat korxonalarini rivojlantirish, yangi qo‘shma korxonalarni tashkil etish bo‘yicha AQSh, Germaniya, Chexiya, Turkiya, Yaponiya, Xitoy, Malayziya, Singapur, Hindiston va boshqa davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatdi[6]. Zarafshon vohasi ma’murlari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan bu aloqalar yanada sifatli negizda qayta tug‘ildi va yangicha mazmun kasb etdi. Buxoro Rossiya Federatsiyasining Kostroma, Tomsk viloyatlari, Ukrainianing Xarkov va Chernigov viloyatlari hamda Boshqirdiston bilan, Navoiy 2001-yilda Koreyaning o‘rtasi va kichik

biznes federatsiyasi (KFSMB), 2002-yil Koreyaning elektr energiya korporatsiyasi va Yaponianing “Silk roud” konpaniyasi hamda Malayziyaning “ZETAVEST SDN. BHD” korporatsiyasi o‘rtasida, Samarqand viloyati esa Turkiya davlatining “Yazeks” firmasi, 2002-yil Yaponianing “Misumi” va “Toyo” injiniring kompaniyalari bilan, bevosita shartnomalar tuzgandi[7].

Mustaqillikning dastlabki o‘n yilligida qo‘shma korxonalar Zarafshon vohasining markaziy hududlarida tashkil qilingan bo‘lsa, 2000-yildan boshlab qo‘shma korxonalar Zarafshon vohasining chekka tumanlaridagi qurilishiga katta e’tibor qaratila boshlandi. Buning asosiy sabablaridan biri qo‘shma korxonalarining tashkil qilinishi 1999-yil mintaqalarda sanoat o‘sishi o‘rniga ayrim tashkil qilingan korxonalar faoliyatini to‘xtatdi. Negaki viloyatlar markazlarida faoliyat yuritgan korxonalarga soliq stavkalari tumanlarga nisbatan yuqoriligi bilan farq qilgan bo‘lsa, yana bir tomonidan arzon ishchi kuchining yetishmasligi bo‘lgan. Misol qilib Buxoro viloyatini aytadigan bo‘lsak 1995-yil viloyatda faoliyat ko‘rsatgan qo‘shma korxonalar 25 ta bo‘lsa, 1997-yilda ular soni 54 taga yetgan. Yuqorida qayd qilingan omillar hamda hamkorlik ishlab chiqarishlari rivoji silliq kechmadi. Buni, 1999-2000-yillarda qo‘shma korxonalar soni 54 tadan 44 taga tushib qolganligida ham ko‘rish mumkin[8]. Samarqand viloyatida 1998-yilda 141 tadan 85 ta qo‘shma korxona faoliyat yuritgan bo‘lsa, 1999-yilda 5 ta qo‘shma korxona faoliyatini butunlay to‘xtatib, 137 ta qo‘shma korxonani tashkil qilib, shundan, 81 ta kotxona faoliyat yuritgan. Lekin, shu yillarda viloyatning birorta tumanida qo‘shma korxona mavjud bo‘lmagan[9]. Navoiy viloyatida esa shu davr ichida chet elliq sheriklar bilan tuzilgan 25 ta qo‘shma korxonadan atigi 8 tasi sanoat sohasida faoliyat ko‘rsatgan. Shundan, 5 ta sanoat korxonasida mahsulot ishlab chiqarish hajmi qariyb 3 milliard so‘mga kamaygan. 2000-yil ko‘rsatkichlari bilan qiyoslaganda, 25 turdag'i sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi qisqarishga yo‘l qo‘yilgan[10]. Viloyatda xorijiy hamkorlar bilan ishlashga yetarli ahamiyat qaratilmaganligi natijasida Navoiy

shahridagi “Qizilqum-Rus-Nur” va “Pribor” kabi qo’shma korxonalar to’xtab qolgan[11].

2000-yil 25-mayda O’zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risida”gi qonuni (ushbu qonunga 2001-yil 12-mayda qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritildi) qabul qilindi[12]. Zarafshon vohasida ushbu qonun ijrosini ta’minalash maqsadida tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar berildi. Tashqi aloqalarga katta e’tibor qaratilib, qo’shma korxonalar ochilishi uchun vohadagi tumanlarning imkoniyatlaridan kelib chiqib joylarda davlat tomonidan imtiyozli kreditlar berilganligi hamda xorijiy valyutalar hisobidan qo’shma korxonalar tashkil qilinishiga yanada e’tibor kuchaytirildi. Zarafshon vohasining chekka tumanlarida qo’shma korxonalar tashkil qilishning foydali jihatlari, yuqorida qayd qilingan muammolarning (arzon ishchi, soliq stavkasining balandligi) oldi olindi. Shu tariqa sanoat korxonalari tumanlarda tashkil qilinishi kuchaytirilishi bilan aholining ishsiz qatlagini ish bilan band qilish boshlanib, shu bilan korxonalar arzon ishchi kuchidan foydalanib ishlab chiqarish hajmining ortishiga erishgan. Bundan tashqari past soliq stavkasida soliqlar to’lagan. Qolaversa, xomashyodan ko’ra tayyor mahsulotni ishlab chiqarib eksport qilgan. Negaki bu katta iqtisodiy naf keltirgan. Shu jihatdan, “O’zavtosanoat” uyushmasi va Turkiyaning “Koch xolding” kompaniyasi o’rtasida imzolangan shartnomaga ko’ra, Samarqandda loyiha quvvati 5 ming donadan ziyod avtobus va turli yuk mashinalari ishlab chiqarishga mo’ljallangan, umumiyligi qiymati 65 mln AQSH dollariga teng “SamKochAvto” qo’shma korxonasi, to’qimachilik sanoati borasida Samarqanddagagi “Samjinteks”, “O’zBAT”[13], Navoiyda O’zbekiston-Amerika qo’shma korxonasi “Zarafshon-Nyumont” Qizilqum cho’lida qisqa muddatda zamonaviy korxona barpo etilgandi. Navoiy GRESi, “Navoiyazot” va “Qizilqumsement” birlashmalari, “Elektroximzavod” kabi qo’shma korxonasi ish olib bormoqda[14].

XULOSA. Zarafshon vohasida sanoat mustaqillikning dastlabgi yillarda rivojlanish darajasida bir muncha qiyinchiliklarga uchragan bo’lsa-da, doimiy ravishda muttasil rivojlanish

jarayonidan to’xtab qolgan emas, hatto vohada og‘ir va yengil sanoat, qolaversa sanoatning barcha tarmoqlari, xususiy va davlat tasarrufidagi qo’shma korxonalar taraqqiyotiga keng ko‘lamda soliq imtiyozlari berilishi natijasida mintaqaning chekka hududlarida sanoat korxonalari tashkil qilinganligini ko‘rish mumkin.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Rahmonov S., Eshonqulov X. Beqiyos yaratuvchanlik va taraqqiyot zamini.// Xalq so‘zi. 2011-yil 15-sentabr, -B.1-2.
2. Buxoro viloyat davlat arxiv, 1459-fond, 1-ro’yxat, 24-yig’ma jild, 49-varaq.
3. Buxoro viloyat davlat arxiv, 1459-fond, 1-ro’yxat, 164-yig’mi jild, 161-varaq.; Buxoro sharq durdonasi... –b.165.; O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi, Q.Harfi, Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2000, –b.315.; Rajabov Q., Inoyatov S. Buxoro tarixi. -Toshkent: Tafakkur, 2016. –b. 417.; Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. 2 jild. –Toshkent: O’zbekiston, 1996. 9,10,19-betlar.
4. O’zbekiston respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2011-yillar) asosiy tendensiya va ko’rsatkichlari hamda 2012-2015-yillarga mo’ljallangan prognozlari. Toshkent, O’zbekiston. 2013-yil. – 130 b.; Ortikov A. Sanoat iqtisodiyoti. O’zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti. – Toshkent., TDIU, 2009. –b.31; Buxoro viloyat davlat arxiv, 1459-fond, 1-ro’yxat, 164-yig’mi jild, 161-varaq.
5. O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti -Toshkent., 2 tom. 2000-2005. –b.315.; Abdurahim Ortikov. Sanoat iqtisodiyoti. – Toshkent., TDIU, 2009 yil. –b.32.; Istam Ibrohimov. Sahro bag’ridagi mo’jiza. // Xalq so‘zi. 2011-yil 12-may, №-93. -B. 1.
6. Samarqand viloyat hokimligi joriy arxiv. 1552-fond, 1-ro’yxat, 412-yig’ma jild, 26-varaq.
7. Buxoro viloyat davlat arxiv, 1459-fond, 1-ro’yxat, 3-yig’mi jild, 57-varaq.; Navoiy viloyat davlat arxiv, 100-fond, 1-ro’yxat, 688-yig’ma jild, 113-varaq.; Samarqand viloyat hokimligi joriy arxiv. 1552-fond, 1-ro’yxat, 412-yig’ma jild, 26-varaq.

8. Erkin Yodgorov. Iqtisodiyot va qo'shma korxonalar// Buxoronomma. 2005-yil, 20-avgust, №68. -B. 3.
9. Samarqand viloyat hokimligi joriy arxivi. 1552-fond, 1-ro'yxat, 2328-yig'ma jild, 53-varaq.
10. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro'yxat, 561-yig'ma jild, 73-varaq.
11. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro'yxat, 561-yig'ma jild, 74-varaq.
12. Asatullayev X., Tursunov B., Mamanazarov A. Korxonalarни rivojlantirish strategiyasi. – T.: 2019, -B.17.
13. O'zbekiston geografiya jamiyatি axboroti. 43-jild. Ilmiy maqolalar to'plami. –Toshkent-2014. – b.111. -213 bet.; Samarqand viloyati kengashining sessiyasi // Xalq so'zi. 2001-yil 12-sentabr. № 188. -B. 2.
14. Navoiy viloyati davlat arxivi. 100-fond, 1-ro'yxat, 561-yig'ma jild, 72-varaq.



TAMADDUN NURI